“Amir Temurni anglash – o’zligimizni angalash demakdir!”

Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish, o’zligimizni anglashdir. Amir Temurni ulug’lash – tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida 2021-yil 20-yanvar kuni O’zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda O’zbekiston davlat filarmoniyasi hamkorligida “Amir Temurni anglash – o’zligimizni angalash demakdir!” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi. Yosh avlodni Vatanga sadoqat va fidoiylik ruhida tarbiyalash, Milliy armiyamizning jamiyat va davlat oldidagi ahamiyati va o’rni, xalqimizning tinchligi, yurtimiz forovonligida harbiylarimizning o’rni, xalq va armiyaning birdamligi, Qurolli kuchlarimizning 29 yilda erishgan yutuqlari bilan faxrlanish kabi tuyg’ularini shakllantirish va yoshlarni harbiy sohaga bo’lgan qiziqishlarini oshirish tadbrining asosiy maqsadi bo’ldi. Tadbirda Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori X.T.Fayziyev, Muzey bo’lim boshlig’i prof. A.Madraimov, O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi T.Xayit, aktyor Ma’rufjon Otajonov, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi “Madaniyat va san’at tashkilotlari bilan ishlash” bo’limi boshlig’i M.Nurmatova va O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi Sh.Isaxanovalar so’zga chiqdilar.

acer